



INTEGRATIV O'QUV METODLARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Anotatsiya: Integrativ o'quv metodlari zamonaviy ta'limda fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni amalga oshiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu metodlar orqali o'quvchilar bilimlarni parcha-parcha emas, balki hayotiy, ijtimoiy va ma'naviy bog'liq holda o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Integratsiya o'quvchini faol ishtirokchi, ma'no yaratuvchi va muloqotchi shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: metod, metodika, integratsiya, integrativ metod, innovatsiya, kommunikativ ko'nikma, metodologiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Zamonaviy jamiyatdagi barqaror taraqqiyot, tezkor axborot almashinuvi va globallashuv jarayonlari ta'lim tizimida yangicha qarashlarni taqozo etmoqda. Bugungi kunda o'quvchilardan faqat alohida fanlarni bilish emas, balki fanlar orasida bog'liqlikni ko'rish, bilimlarni turli sohalarida qo'llay olish, muammolarga ijodiy yondashish kabi kompetensiyalarni egallash talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, integrativ o'quv metodlari nafaqat pedagoglar, balki ta'lim tizimi rivojiga mas'ul bo'lgan tadqiqotchilar va amaliyotchilar orasida ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Integrativ metodlarga qiziqishning zamonaviy sabablaridan biri ularning o'quvchilarda ko'pqirrali fikrlash, fanlararo bog'liqlikni tushunish va ko'nikmalarni turli vaziyatlarda qo'llash salohiyatini shakllantirishidir. Masalan, bir vaqtning o'zida adabiyot, san'at va tarixni uyg'unlashtirib o'rgatish bolalarda nafaqat ma'lumot hosil qilish, balki mazmunni anglash, shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy idrokni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, integratsiyaga asoslangan metodlar jamoaviy ish, muloqot, kreativlik va tanqidiy tahlil salohiyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli integrativ o'quv metodlariga qiziqishning ortishi bu zamonaviy ta'limning fanlararo, kompetensiyaga asoslangan va shaxs rivojiga qaratilgan xarakteri bilan uzviy bog'liqdir. Ular zamonaviy talablarga javob beradigan universal va innovasion yo'nalish sifatida pedagogik nazariya va amaliyotning muhim qismiga aylanmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida *integratsiya tamoyillarining dolzarbligi* alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki zamonaviy ta'lim faqat ma'lumotni berishga emas, balki shaxsning kompleks rivojlanishiga, fanlararo bog'liqlikni anglashga va bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilmoqda. Integratsiya tamoyili orqali ta'lim jarayonida turli fanlar o'rtasida uyg'unlik va bog'lanish ta'minlanadi, bu esa o'quvchida ko'pqirrali qarash, keng intellektual maydon, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi ta‘limda fanlar orasidagi chegaralarni yumshatish va ularning birgalikdagi qo‘llanishi o‘quvchida yaxlit bilim va kompetensiyalar tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, tabiatni o‘rganish jarayonida faqat biologiya yoki geografiyani emas, balki ekologik ong, axloqiy munosabat va ijtimoiy mas‘uliyatni ham rivojlantirish maqsad qilinadi. Buning uchun esa fanlararo integratsiya tamoyili shart bo‘lib, u o‘quvchilarga bilimlarni alohida bloklar sifatida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan hayotiy jarayon sifatida anglash imkonini beradi.

Ta‘lim jarayonida integratsiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Fanlararo bog‘liqlik tamoyili. Bu tamoyil turli fanlar o‘rtasidagi mazmun, maqsad va vazifalardagi umumiylikni, bir-birini to‘ldirish va uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini aniqlashni nazarda tutadi. Masalan, adabiyotda o‘rganilgan mavzular tarixiy, geografik yoki ijtimoiy voqealar bilan bog‘lanib tushuntirilsa, bolalar bilimlarni kompleks ravishda o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

2. Yaxlitlik va tizimlilik tamoyili. Bu tamoyil ta‘lim jarayonining barcha qismlarini — maqsad, mazmun, uslublar va natijalarni bir butun tizim sifatida ko‘rishni talab qiladi. Unda ta‘limning barcha komponentlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi shaklda quriladi, shuning uchun ham o‘quvchi bilimlarni parcha-parcha emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qiladi.

3. Amaliy yondoshuv tamoyili. Integratsiya faqat nazariy bilimlarni birlashtirish bilan cheklanmay, ularning hayotiy ahamiyati va amaliy qo‘llanishini ta‘minlashi zarur. Masalan, o‘quvchilar integratsiya orqali nafaqat bilim oladilar, balki ularni ijtimoiy faoliyatda, muloqotda, ijodiy ishlarda tatbiq etishni ham o‘rganadilar.

4. Mazmunning uyg‘unligi va izchilligi tamoyili. Bu tamoyil ta‘lim mazmunini tanlashda uning fanlararo bog‘liqlikda uyg‘un va mantiqan izchil qurilishini talab qiladi. O‘quv materiallari turli fanlardan o‘rganilayotganda ularning umumiy mavzusi, g‘oyasi va maqsadi uyg‘un va bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi shart.

5. O‘quvchi faolligini ta‘minlash tamoyili. Integrativ ta‘lim jarayonida o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuvchi va muloqotchi bo‘lishi kerak. Shuning uchun integratsiya tamoyillarida faol o‘qitish, ijodiy topshiriqlar, guruhda ishlash, muhokama va bahslar kabi elementlar albatta qo‘llaniladi.

6. Innovasion va ijodiy yondashuv tamoyili. Integrativ metodlar zamonaviy innovasion yo‘nalishlar, yangi texnologiyalar va yangicha o‘qitish uslublarini joriy etish orqali bolalarda ijodiy fikrlash, yangicha qarash va yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi shart.

Integratsiya tamoyillari ta‘lim jarayonida yuqori motivatsiya va qiziqish uyg‘otadi, chunki ular turli mavzularni yangi rakursdan ko‘rish, bilimlarni yangicha uslubda o‘rganish va muloqot, hamkorlik, ijodiy ishlash imkoniyatlarini yaratadi. Bunday yondashuv zamonaviy pedagogikaning fanlararolik, kompetensiyaviy yondashuv va integratsiya tamoyillari asosida qurilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, bugungi ta‘limda integratsiya nafaqat yangi metod, balki ta‘lim jarayonining innovasion va strategik asosi hisoblanadi.

Integrativ o‘quv metodlarining nazariy asoslarini ochib berish bu metodlarning mazmuni, maqsadi va pedagogik qiymatini chuqur anglash uchun muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Chunki integrativ yondashuv faqat bir necha fanni birlashtirish emas, balki ta’limni yaxlit, maqsadli va multidissiplinar muhitda tashkil etish, o‘quvchida turli sohalar o‘rtasida bog‘liqlikni anglash va qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdelghani R., Oudeyer P.-Y., Law E. *Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children* // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 2005. – P. 4.
3. Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. *Academic Research in Educational Sciences* . Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. *Group communication in school environments*. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 67.